Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320796

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

shartdir. Bu chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. Acs, Zoltan J. va Audretsch, David B. Tadbirkorlik tadqiqotlari qo‘llanmasi. Springer, 2010.
2. De Soto, Hernando. Kapital sir-sinoatlari: Nima uchun kapitalizm G‘arbda muvaffaqiyat qozonadi, lekin boshqa joylarda emas. Basic Books, 2000.
3. Yunus, Muhammad. Kambag‘alliksiz dunyo yaratish: Ijtimoiy biznes va kelajak kapitalizmi. PublicAffairs, 2008.
4. Birlashgan Millatlar Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Inson rivojlanishi hisobotlari, 2022.

O‘ZBEKISTONDA YOSH OILALARNING TADBIRKORLIK ORQALI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

Imomnazarov Hasan Ixtiyor o‘g‘li
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)
hasanboyimomnazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi, yosh oilalarning tadbirkorlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jamiyat faravonligini oshirishning muhim vazifalari, imkoniyatlari hamda istiqbollari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: Oila, rivojlanish, yosh oila, ijtimoiy-iqtisodiy, kapital, tadbirkorlik, kichik biznes, barqarorlik.

O‘zbekistonda yosh oilalarning tadbirkorlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti va jamiyat farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yosh oilalarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ular uchun qulay muhit yaratish va qo‘llab-quvvatlash, nafaqat oilaviy farovonlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiyotning turli sohalarida yangi imkoniyatlar ochilishiga hissa qo‘shadi.

Oilada hamjihatlik, mehr-muhabbat va o‘zaro hurmat hukmron bo‘lsa, bu kichik qurilgan dunyoning har bir a’zosi g‘amxo‘rlik, quvonch va o‘z qadr-qimmatini his qiladi. Yosh oilalarda kuzatilayotgan muammolarni tadbirkorlik orqali hal etishda, dastlab tadbirkorlik haqida aytib o‘tish joiz. Tadbirkor deganda ish, korxona, fabrika tushuniladi va uning ortida maxsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ishlab chiqarish, xo‘jalik yuritish tizimini murakkab organizm turadi.[86] Tadbirkorlik sohasini xo‘jalik yuritish ko‘lamiga ko‘ra 3 ga bo‘lamiz. Bular yirik-500 dan ortiq kishini ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lishi, o‘rta- 20 tadan 500 kishigacha bo‘lgan kishini band qilgan ishlab chiqarish va kichik tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonida 10-20 yoki undan kam kishini o‘zida band qilgan tadbirkorlik turlariga bo‘lamiz. Yirik ishlab chiqarish, keng turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, mehanizatsiyalashgan va avtomatlashgan yo‘nalishlarda yirik va o‘rta tadbirkorlik subektlari faoliyat olib boradi. Kichik tadbirkorlikka esa asosan hizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari yoki qishloq xo‘jaligi sohalarini qamrab oladi.Umuman olganga kichik

[86] Tadbirkorlik asoslari. S. N Usmonov, Yu. T Dadaboyev. Farg‘ona nashriyoti. 2000-y.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Imomnazarov Hasan Ixtiyor o‘g‘li (2024). O‘zbekistonda yosh oilalarning tadbirkorlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbollari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320796
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

tadbirkorlik sohalari keng tarqalgan. Chunki ushbu turdagi tadbirkorlik turlari sharoitga tez moslashadi va shu jihatdan katta va o‘rta tadbirkorlik turlaridan keskin farq qiladi.[87]

Tadbirkorlik mulkchilik subektlarining foyda olish maqsadida tavakkal va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatish tizimidir.[88]

Tadbirkorlik yer, mehnat, kapital, axborotlar bilan birga ishlab chiqarish va iqtisodiyotning bosh omillaridandir. Biznesni tarkibiga bevosita tadbirkorlik kiradi, lekin hamma biznes ham Tadbirkorlik bo‘lavermaydi. Tadbirkorlik faoliyati qachon yuzaga keladi? Biznesda tovar hamda xizmatlarni yuzaga keltirib, bozordagi talab va extiyojlar qondirilganda ushbu jarayon yuzaga keladi. Tarixan tadbirkorlik uzoq o‘tmishga ega ammo tadbirkorlik tushunchasi XVII asrda vujudga kelgan va ko‘p holatlarda “mulkdor“ iborasi bilan bir ma’no-mazmun kasb etadi. Xususan, A. Smit Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxsni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish yurutuvchi mulkdor deb tariflaydi. Hozirgi davr G‘arb adabiyotida ham Tadbirkorlik foyda olish maqsadida xo‘jalik yuritish san’ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik va tashabbusning erkin namoyon bo‘lishi, novatorlik, xavf-xatarga doim tayyor turish kabi belgilar bilan tavsiflanadi.[89]

Xalq farovonligini yuksaltirish maqsadida O‘zbekiston Respeblikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga moljallangan “Xarakatlar stretegiyasi” ni qabul qilinishi shu bilan birga 2018-yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash” yili deb e’lon qilinishi yurtimmizda tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan etiborning yuksak namunasidir. Shuningdek mamlakatimmizda tadbirkorlik faoliyati rivojlantirish uchun bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, 2016-yil 5-oktyabrda PF-4848-son, “Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni taminlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2017-yil 7-fevraldagi PF 5106-son, “Yoshlarga doir davlat siyosati samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari shuningdek, 2018-yil 7-iyuldagi PQ–3777-son, “Xar bir oila tadbirkor dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi farmon-u qarorlar tadbirkorlik rivojiga kata hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlar, tadbirkorlik va uni rivojlantirish imkoniyatlari O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimovning ham asarlarida o‘z tasdig‘ini topadi.[90] O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichida esa tadbirkorlarning mamlakat rivojlanish stretegiyasi va yangi rivojlanish bosqichida ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida ifodalangan.[91] Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil vazifasini tadbirkorlik faoliyaiti tashkil etadi. Bugungi kunga kelib bizning davlatimmizda ham tadbirkorlik yoinki kichik biznes tushunchalari yildan yilga keng ildiz otib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes yurtimiz iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishi sifatida

[87] O‘zME. birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

[88] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respudlikasida tadbirkorlik to‘g‘risida» qonunidan https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tadbirkorlik/

[89] Karimov I A O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlariv taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O‘zbekistin 1997.325b. Erishilgan marralar bilan chegarlanmasdan, boshlangan islohatlarimmizni yangi bosqichga ko‘tarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimmizdir.23 tom Toshkent O‘zbekiston. 2015 y. 404b

[90] Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O’zbekiston 2017 y. 488b.

[91] O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh Mirziyoyev Tadbirkorlar bilan uchrashuvi Toshkent 2021

belgilangan. Oxirgi besh yilda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan 2000 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida, 114 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o‘tkazildi. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirib, muddatlari o‘rtacha 2 barabarga qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xom ashyo bo‘yicha ko‘plab cheklovlarga barham berildi. Yuqoridagi qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi subektlar nihoyatda ko‘payib, oldindan ishlayotganlari faoliyatini yanada rivojlantirmoqda. So‘ngi besh yilda tadbirkorlar soni salkam 3 baravar oshdi. Ko‘plab tadbirkorlar o‘z biznesini butun mamlakat bo‘ylab kengaytirib, minglab ish o‘rinlari yaratishdi va yirik kompaniyalarga aylandi. Ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi paydo bo‘la boshladi.[92]

Prezidentimizning 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqoti jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesni rivoji uchun to‘siq bo‘layotgan, tadbirkorlarni qiynayotgan muommolarni yechimi sifatida 7 ta yo‘nalisni ko‘rsatib o‘tdi. Xususan birinchi yo‘nalish-biznesni moliyalashtirish, ikkinchisi-soliq tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorga soliq yukini kamaytirish, uchinchisi-yer ajratish, to‘rtinchisi-infratuzilma, beshinchisi-ekspartyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, oltinchisi-transport-logistika, yettinchisi-sohadagi tartib tamoyillarni soddalashtirish masalalariga bag‘ishlandi va davlatimiz rahbari har bir yo‘nalish bo‘yicha dolzarb vazifalarni ko‘rsatib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag‘batlantirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish, tadbirkorlik soxasida katta-katta marralarga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda ishonchli tadbirkorlik muhiti shakllanmoqda. Rivojlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yurtimmizda ham yakka tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Singapur, Malayziya kabi mamlakatlar aholisining deyarli 80 foizi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sektorida faoliyat olib boradi. Kichik biznes Aqsh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda kata ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro Kichik biznes kengashi (ICSB) malumotlariga ko‘ra kichik biznes subektlari barcha korxonalarning 90 foizidan ortig‘ini, ish bilan band bo‘lganlarning 60-70 foizini, yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etadi.[93] 2017-yil kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53.3 foizni yoki 119301 mlrd so‘mni tashkil etdi. (Germaniyada – 54 foiz, AQShda – 52 foiz, Yaponiyada – 55 foiz, Rossiyada – 20 foiz, Qozog‘istonda – 25.6 foiz). Kichik biznesni sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 12.9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich 39.6 foizga yetdi, qishloq xo‘jaligida – 99 foizni, chakana savdo aylanmasida – 88.4 foizni, qurilish sohasida – 65.1 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 27 foizni, importda – 50 foizni, investitsiyada esa – 32 foizni tashkil etdi.[94] Yuqoridagi statistik malumotlardan shu malum bo‘ladiki kundan kunga kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakatimmiz nafaqat mamlakatimiz dunyoning barcha davlatlarida rivojlanmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muommolarni hal qilishda hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoj topishida tadbirkorlikning o‘rni katta. Tadbirkor ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida yangi ish o‘rinlari yaratishadi. Bu jarayonni aholini aholini ish bilan band qilinishi va ishsizlikni kamaytirishda ro‘li beqiyosdir. Natijada, tadbirkorlik faoliyati aholini ish bilan taminlanishi, mehnat va iqtisodiy faolligining

[92] https://www.rsbctrade.ru 2012 y 16 iyun.
[93] MSME Day http://www.intracen.org/MSME-day/2019/
[94] https://mineconomy.uz/uz/info/2093

ortishi, buning oqibatida aholining daromadlarini yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu jarayonning ikki oqibatiga etibor qaratish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma’naviy zaruratlarining ortishi, kengayishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu zaruratlarni qondirish imkoniyatlarini paydo bo‘lishidir. Natijada ushbu jarayonlar aholi hayotini tubdan yaxshilash, turmush darajasini ko‘tarish, farovonligini oshirishni taminlaydi. Tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishi bilan uning mazkur sohadagi ro‘li ko‘paya boradi.

Yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining hissasini hisobiga importni qisqartirish va eksportni kengaytirish imkoniyatlari rivojlanmoqda. Ular birinchidan, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarib, valyutani chetga chiqib ketishini kamaytirish va mamlakat iqtisodiy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, ikkinchidan esa eksportbob mahsulotlar chiqarish, ularni tashqi bozorlarda sotib, mamlakat eksport salohiyatini ko‘tarish va valyutadan keladigan daromadlarni oshirishda ham keng o‘rin egallaydi.

“Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’iy nazar erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, butun hayotidan rozi bo‘lib yashashi-bizning bosh maqsadimizdir”.[95] Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach hamma sohada bo‘lgani kabi tadbirkorlik va kichik biznes sohasida katta muvaffaqiyatlar qozondi va qozonib kelmoqda.

Yosh oila nuqtai nazaridan nisbatan dolzarb sanalgan ikki muammoni alohida ko‘rsatish zarur, bular: ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolar bo‘lib, birinchi holatda muammolar yosh oilaviy juftlikning moddiy, uy-joy, ish o‘rinlari bilan ta‘minlanganligi asosida kelib chiqadi. Chunki, yosh oilalarning salmoqli qismi daromadi past bo‘lib, ko‘pchiligi kambag‘al hisoblanadi. Mehnat bozorida yosh mutaxassisga talabning pastligi yoki ish tajribasining yo‘qligi yosh oilaning moddiy holatini yomonlashtirish bilan bir qatorda mamlakat aholisi turmush tarzini tushib ketishiga olib keladi.

Ikkinchi blok muammolarga yosh oilaviy juftlikni bir-biriga, yangicha vaziyatga (rollar, stereotiplar va hulq-atvor usullarini o‘zgarishi) va yangi qarindoshlarga moslashuvi mansubdir.

Qator tadqiqotchilar yosh oilalarning zamonaviy holatini tahlil etar ekanlar sotsial-maishiy muammolar, zamonaviy oilani shakllanishi, oilaviy tarbiya va xatar guruhiga mansub oilalar muammolarini alohida o‘rganishni taklif etadilar[96].

Umuman yosh oilaning barqarorligi va zamonaviy holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarga oilaviy daromadning pastligi, xususiy uyjoyning yo‘qligi; farzandlar tug‘ilishi munosabati bilan kambag‘allashish, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasliklari, oilaviy hayotning ma‘naviy va ruhiy asoslarini bilmaslik, ziddiyatlarni hal eta olmaslik, xudbinlikni kiritish mumkin.

Yosh oilalarning boshqa turdagi oilalardan farqlovchi jihatlaridan biri, shundaki, undagi munosabatlar negizi qarindoshlik emas ota-onalik maqomi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu maqom boshqalarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, amalda mavjud bo‘lgan oilaviy munosabatlar ustuvorligini tan olish zaruriyatini ko‘rsatadi. Zero, erkak va ayol o‘rtasidagi xuddi shu kabi ittifoq jamiyat tomonidan oilaga yuklangan vazifalarni bajarishga qodirdir. Biz nikohning davlat tomonidan rasmiy qayd etilishi rolini aslo kamsitmagan holda shuni aytamizki, ushbu yuridik fakt avvalambor, huquqiy munosabatlarni o‘rnatilishi, er-xotin, ularning farzandlari va boshqa qarindoshlarining huquq va majburiyatlari sohasidagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun ahamiyatlidir. Bizning maqsadimiz oilada mavjud

[95] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018-y.

[96] Молодая семья: проблемы и перспективы социальной поддержки. – Красноярск: РУМЦ ЮО, 2005. – С.30

hayotiy muammolarni anglash, ushbu sotsial institutni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan oilaviy siyosat yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Shu tariqa yosh oila va uning muammolarini tadqiq etish quyidagi xususiyatlarga ega oilalarni yalpi yig‘indisiga kiritilishini nazarda tutadi.

- ikki yosh rasmiy nikoh tuzishgan yoki birga yashashaydi va birgalikda uy xo_jaligini yuritishadi (fuqarolik nikoh);
- er-xotinning yoshi 30 dan oshmagan;
- birgalikdagi hayot davomiyligi – 3 yoshgacha (farzand tug‘ilishi holatida birgalikdagi hayot davomiyligida cheklanishlarisiz).

Yondashuvlar xilma-xilligiga qaramasdan muallif mazkur ishining maqsad va vazifalariga mutanosib ta‘rifni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu ta‘rif oilani ikki xil mazmunda, ya‘ni, sotsial institut va kichik sotsial guruh sifatida tadqiq etishni mohiyatan uyg‘unlashtiradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida oilalar o‘z mulki, ishlab chiqarish va oilaviy biznes vositalari hisobidan daromadlarini ko‘paytirish maqsadida faol foydalanishga intilishi hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Biroq, oila xo‘jaligi ixtiyoridagi mavjud mulkdan daromad olish maqsadida foydalanish hamisha ham muvaffaqiyatli kechavermaydi. Oilalar iqtisodiy axvoli, bandlik va oila daromadi ko‘p jihatdan umumiy makroiqtisodiy muhitga ham bog‘lik deb o‘ylaymiz. Chunki islohotlar davomida respublikamizdagi makroiqtisodiy vaziyatning dinamik o‘zgarib borishi, oilalarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi shart-sharoitlarini ham o‘zgartirib bormoqda. O‘zbekistonda oila xo‘jaliklarida mavjud mulklarning umumiy qiymati bizning hisob-kitoblarimiz bo‘yicha taxminan 38,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bu mulklar tarkibida oila xo‘jaliklarining shaxsiy uy-joylari salmoqli o‘rin egallaydi. Respublikamizda deyarli barcha oilalar shaxsiy uy-joylariga ega. Biroq, ularning oilaviy biznes va ishlab chiqarish vositalari shaklidagi mulklari o‘ta kichik. Hozirgi iqtisodiy vaziyat asosiy e’tiborni mulkni tadbirkorlikka invistitsiyalashga qaratishni talab etmoqda.

Bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Yosh va kam ta’minlangan oilalarga:

1. Subsidiya;
2. Maqsadli va imtiyozli kreditlar;
3. Ipoteka kreditlash;
4. Davlat va kommunal uy-joylarini ijarga berish va mexanizmlari kabi imtiyozlarga egadirlar.

Istiqlol yillari davlatimmiz tomonidan Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan insonlarga barcha sharoitlar yaratib berildi. Ma’lumki, O‘zbekiston hududida qadimdan hunarmandchilikning turli sohalari shakllangan va istiqlol davrida hunarmandchilik sohasi bilan shug‘ullanib kelayotga fuqorolarga ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi asosida katta-katta tadbirkorlik subektlari paydo bo‘ldi. Bu o‘z navbatida oilalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh etishning to‘g‘ri tanlangan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasi” hamda “Taraqqiyot strategiyasi”ning samarasi ekanligi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda, yosh oilalarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo‘lgan xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi. Oilaviy tadbirkorlikning dolzarbligi shundaki, aholini ish bilan ta’minlash bilan birga, oila iqtisodini yaxshilash bilan birga oiladagi barqarorlikni, ularning daromadlarini oshirish, davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirish, pirovardida, oila

farovonligini, xalqning to‘kin-sochin hayot kechirish imkoniyatlariga ham ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLLAR RO‘YXATI:

1. Tadbirkorlik asoslari. S. N Usmonov, Yu. T Dadaboyev. Farg‘ona nashriyoti. 2000-y.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – N. 234-bet, Davlat ilmiy nashriyoti; TOSHKENT-2007;
3. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respudlikasida tadbirkorlik to‘g‘risida» qonunidan https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tadbirkorlik/
4. Karimov I A O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlariv taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O‘zbekistin 1997.325b. Erishilgan marralar bilan chegarlanmasdan, boshlangan islohatlarimmizni yangi bosqichga ko‘tarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimmizdir.23 tom Toshkent O‘zbekiston. 2015 y. 404b
5. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O‘zbekiston 2017 y. 488b.
6. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh Mirziyoyev Tadbirkorlar bilan uchrashuvi Toshkent 2021;
7. https://www.rsbctrade.ru 2012 y 16 iyun.
8. MSME Day http://www.intracen.org/MSME-day/2019/

TADBIRKORLIK AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

E.A.Muminova
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti Professori
A.A.Jo‘rayev
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti 2-bosqich M2-23 MBA guruh magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi aholining iqtisodiy farovonligi oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlarga yaratilayotgan shar-sharoitlar, kambag‘allik qisqartirib, bandlik darajasini oshirishning dolzarbligi ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, oilaviy mehnatining raqobatbardoshligi, oilaviy tadbirkorlik, ularning bandligini ta’minlash va O‘zbekiston Respublikasi aholisining iqtisodiy faollik darajasi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy faollik, tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, huquq, kambag‘allik, kambag‘allik qisqartirish, bandlik.

2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish. Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish. Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash. Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlash. Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni